

## FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI (G‘AFUR G‘ULOM ASARLARI ASOSIDA)

**Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna**

SamDCHTI “Ingliz tili nazariyasi  
va amaliyoti” kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada G‘.G‘ulomning “Shum bola” va “Yodgor” qissalarida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklar shakllanishida asosiy komponent vazifasidagi leksemalarga alohida e‘tibor qaratiladi hamda ularning izohi tegishli lug‘atlardan keltiriladi. Lingvomadaniy jihatdan chuqur tadqiq qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologiya, frazeologik birlik, uzual birlik, semantik ma‘no, omonimlik, antonimlik, sinonimlik.

Ajdodlarning ruhiy olami va tushunchalari bugungi kunga qadar maqol, matal, frazeologik birlik (FB)lar, o‘xshatish va metaforalar, madaniy belgilar orqali yetib kelgan. FBlar millat mentaliteti va madaniyati haqidagi ma‘lumotlarning qimmatli manbayidir. Ular xalq og‘zaki ijodi namunalarida, badiiy asarlarda hamda urf-odatlarda o‘zgarmay saqlanib kelmoqda. Rus tilshunosi B.A.Larin fikricha: “Tongda yorug‘lik shudring tomchilarida qanday aks etsa, frazeologik birliklar ham xalq dunyoqarashi, ijtimoiy tuzum, o‘z davri mafkurasini shunday aks ettiradi”. Shu sababli FBlar dunyo tilshunos olimlarini doimo qiziqtirib kelgan. Rus tilshunosi V.N.Teliya va uning lingvistik maktabi vakillari FBlarining milliy-madaniy ko‘chma ma‘nolarini tavsiflash va mentalitetning xarakterlovchi qirralarini ochib berishga diqqat qaratgan.

O‘zbek tilshunosligida ham FBlar turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Xususan, Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, Sh.Almamatova, A.Abdusaidov, Sh.G‘aniyeva kabi olimlarning ilmiy ishlarida bu birliklarning o‘ziga xos belgilari, taraqqiyoti, uslubiy jihatlari, etimologik xususiyatlari, ayrim tillar frazeologizmlari bilan qiyoslanishi, frazeologizmlarni modellashtirish muammolari kabi masalalar o‘rganilgan.

FBlarining yaratilishi, qachon va qaysi ma‘noda ishlatilishi, ularda so‘zlarning qo‘llanilishini o‘rganish o‘zbek xalqi tarixi, ijtimoiy ahvoli, turmush tarzi, urfodatlari, turli toifaga oid shaxslarga bo‘lgan munosabati haqida ba‘zi fikrlarga kelishda yordam beradi. Shuning uchun FBlarda umummilliylik, umumxalq ahamiyatiga ega bo‘lish ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Quyida G‘.G‘ulom asarlarida ishlatilgan ayrim FBlarining

lingvomadaniy xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz. Misol: Qalandarboshi meni ta'rif-tavsiflab ketdi. Jazavalarimning zo'rligidan gapirdi. Bir choynak choy ichguncha olami fanodan olami baqoga o'tib ketgan, behud Mashrabi devona, dili jazavai ilohi bilan to'la qalandarbachcha, o'rta qo'ldek ekanligimni tushuntirdi [Shumbola 69 b].

Fano so'zi arab tilidan olingan bo'lib o'lmoq, vafot etmoq, yo'q bo'lmoq kabi ma'nolarni anglatadi, baqo so'zi ham arabcha bo'lib "abadiy", "o'lmas", "o'chmas", "mangu" degan ma'noni anglatadi. G'.G'ulom "Shum bola" qissasida fano va baqo so'zlarini uyg'unlashtirgan holda iboraning hajmini kengaytirgan. Ya'ni "fano olamidan baqo olamiga ketmoq" "yo'qlik olamidan mavjudlik, mangulik olamiga ketish" ma'nosida kelmoqda. Mazkur gapda tinib tinchimas Qoravoyning ta'rifi Qalandorboshi tomonidan to'rt sifatdoshli birikma bilan asoslanib berilmoqda: olami fanodan olami baqoga o'tib ketgan, behud Mashrabi devona, dili jazavai ilohi bilan to'la qalandarbachcha, o'rta qo'ldek. [Shumbola 69b]

O'rta qo'ldek iborasi so'zlashuv tilida o'rta barmoqdek shaklida qo'llanadi. Tilimizda barmoq bilan bog'liq quyidagi o'xshatishlar mavjud: bosh barmoqdek, o'rta barmoqdek, jinjiloqdek, ko'rsatkich barmoqdek. O'rta barmoq qo'ldagi barmoqlar ichida eng ko'zga tashlanadigan, hajmi kattasidir. Shu sababdan ham tilda ko'zga ko'rinarli, e'tiborga molik bo'lib qolgan ma'nosida o'rta qo'ldek iborasi shakllangan. O'rta qo'ldek iborasi sinekdoxa asosida ma'no ko'chish jarayonida shakllangan. Qoravoyga nisbatan mazkur iboraning qo'llanishida uning ko'zga ko'rinarli, qo'lidan ish keladigan, ancha ulg'ayib qolganiga ishora bor.

Lingvomadaniy xususiyatga ega boshi bog'liq iborasi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "unashtirib qo'yilgan" ma'nosini ifodalashi ko'rsatilgan [O'TIL, II, 206]. "Boshi bog'liq" iborasida qizlarning "unashtirilganlik" ma'nosida "turmushga chiqqanlik" belgisi mavjudligini ifodalanmoqda. Bu iboraga zid ma'noda boshi bo'sh, boshi ochiq, boshi bog'lanmagan FB'lari mavjud bo'lib, ular erga tegmagan FBi bilan sinonim. Erga tegmoq FBidan ko'ra boshi bog'liq FBida o'zbek millatiga xos andisha, uyat kabi xislatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. "Yodgor" qissasida bu FBdan Saodatga kelayotgan sovchilarni qaytarish maqsadida kampir tilidan qo'llangan: Hammasiga ham «yo'q, aylanaylar, hali qizim yosh, undan keyin buning boshi bog'liq», deb javob beraman. Xolasining o'g'liga «beshik ketdi» deyman, buning yigiti Ashxobodda sallotboshi deb maqtanib qo'yaman»,— debdi, daromad keltirib

E'tibor qilinsa, bir gapda ketma-ket ravishda unashtirilmoq ma'soni ifodalovchi ikki ibora qo'llanilgan. O'TILda boshi bog'liq iborasiga ma'nodosh milliy-madaniy xususiyatga ega "beshik ketdi" iborasi ham berilgan bo'lib, "bolalarni beshikdalik vaqtidayoq unashtirib qo'yish odati" ma'nosini anglatishi keltirilgan [O'TIL, II, 117].

Xalq orasida boshi bog‘liq FBl shakllanishida bosh leksemasi umumiy nuqta bo‘lib kelmoqda, demak, xalq oila qurishni ikki boshni (yigit va qiz) birlashtirish tarzida tushunishgan. Boshini ikkita qilmoq, boshini qovushtirish FBlari ham “juftlashtirmoq”, “oila qurmoq” ma’nosini anglatadi.

— O‘hho‘, juda aktivistka bo‘lib ketibsanku! Men bo‘lsam, ikki boshni bir yerga qovushtirolmay hayronman.[Yodgor 33b]

Xalqimiz orasida “Bosh” bilan bog‘liq bo‘lgan “boshini yemoq” iborasi ham mavjud bo‘lib u ko‘p hollarda insonlar tomonidan turli xil vaziyatlarda qo‘llaniladi. G‘.G‘ulomning “Shum bola” asarida ushbu ibora domla tomonidan Qoravoyga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib quyidagi ko‘rinishda uchraydi: Ha, xizimating boshingni yesin! - dedi domla. - Eshakni so‘yib qo‘yibsanku, padar la’nat! Men bu eshakni Buxoroyi sharifdan uch tilloga olgan edim. O‘zi ham qanday eshak edi-ya, bay-bay eshagim...(Shum bola, 54)

Misoldagi iborada “yo‘q qilmoq”, “halok qilmoq” ma’nosini kuchli va qat’iyroq tarzda ta’kidlash uchun ushbu ibora qo‘llanilgan. Olib borilgan maxsus “kuzatishlar frazeologik sinonimlarning ko‘pincha obrazlilik darajasida farq qilishini ko‘rsatadi”[1, 116].

“Shum bola” qissasida bozor tasviriga alohida e’tibor qaratilgan, bozor tasvirlangan o‘rinlarda, tabiiyki, unda oldi-berdi jarayonida qo‘llaniladigan jumla va iboralar keltiriladi. Xalqimiz oldi-sotdi savdosida “barakasini ber”, “barakasini bersin”, “barakasi yo‘q”, “bor baraka”, “bor baraka top” singari iboralar tez-tez uchraydi. “Bor baraka”, “bor baraka top” iborasi O‘TILda qayd etilgan bo‘lib, “aytilgan narxga xo‘p deng” ma’nosini anglatadi. [O‘TIL, II, 34]. Qissada mazkur ibora qisqargan shaklda «bor baraka top» tarzida qo‘llangan: Qani, ha, uka, baraka, de, - deb yarim soatcha qo‘l siltashib savdolashgandan keyin ketmonni yarim so‘mga, kurakni bir yarim tangaga bor baraka top qildik. ( shumbola 24 b); Biz hali biror tuyaning tishini ko‘rmasdan, biror otning yo‘rig‘ini bilmasdan, biror buqaga: «Bor, baraka top», demasdan, qo‘y bozorining kunchiqar tomonida g‘ala-g‘ovur janjal ko‘tarilib qoldi.(Shumbola 28 b); Juma kuni, qo‘ylar ma’ragan, tuyalar bo‘kirgan, otlar kishnagan, bozorchilar so‘kishgan, tole osmonini bozorning changi qoplagan, dallollarning bilaklari «Bor baraka top!» da charchagan (Shumbola 65 b).

Baraka leksemasi bilan tilimizda bir qancha iboralar shakllangan: baraka topgur, barakasini bersin, baraka yog‘ilsin, boriga baraka, barakasi ketdi, baraka kirdi, xirmonga baraka kabi. Bular ichida “baraka top”, “baraka topgur” iborasi katta yoshli kishilar tomonidan kichiklarga nisbatan olqish sifatida qo‘llanadi. “Yodgor” qissasida mazkur ibora Saodatga nisbatan kampir tilidan qo‘llangan: —Saodat bolaginam ham vafolikkina qiz: ikki kunning birida, «xola-xola» deb holimdan xabar olib turadi. Nima uchundir, uch kundan beri kelmadi. «Tik etsa eshikka qarab o‘tirgan edim. Baraka

topkurning qo‘li gulgina. Bir nafasning ichida hamma ishlarni saranjom qilib berib ketadi (Yodgor 47 b)

Badiiy nutqda iborlarni ishlatish, qo‘llash yo‘llari juda xilma-xil. Yozuvchi va publisistlar umutildagi mavjud tayyor iboralardan unumli foydalanibgina qolmay, o‘zlari ham shular zahirida yangi iboralar yaratadilar. Bunda ular umumtil iborasi zahiridagi ma‘noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartish uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma‘nolar kiritish kabi usullardan foydalanadilar.

Umumtil frazeologik iboralaridan G.G‘ulom o‘z asarlarida mohirlik va ijodkorlik bilan foydalangan. Keltirilgan misollar frazeologizmlarning ma‘lum o‘zgarishlarga uchrab qo‘llanilishiga, ijodiy o‘zlashtirilishiga, qayta ishlanishiga va shu bilan unga yangi ma‘nolar yuklanishiga aksariyat badiiy uslubda yo‘l qo‘yilishi haqidagi fikrni yana bir marta tasdiqlaydi. Agar ibora komponentini almashtirish mantiqiy asoslangan bo‘lsa, uning uslubiy samaradorligi yuqori bo‘ladi. Odatda ibora tarkibidagi komponent o‘zgarishi muayyan shart-sharoit, matn talabi bilan yuz beradi. Masalan, tilimizda “gapirma” ma‘nosida “ovozingni o‘chir” iborasidan foydalaniladi. “Yodgor” qissasida mazkur iboraning “chakagini o‘chirmoq” sinonimi qo‘llanilgan. Chakak umumtirkiy so‘z bo‘lib, pastki jag‘ning so‘zlashuv uslubidagi varianti. Chakak komponentli “chakagini o‘chirmoq”, “chakagi ochilmoq”, “chakagi ochiq”, “chakagi tinmaydi”, “chakagi chakagiga tegmaslik”, “chakagi tushmoq” kabi FB lar shakllangan. Qissada “chakagini o‘chirmoq” iborasi timinsiz yig‘lagan, yig‘loqi bolaga nisbatan ishlatilgan: Oyi,— dedim,—shu bolaning **chakagini o‘chiring**, onasi hali-beri kelmaydi.(Yodgor,9 b)

Frazemalarning qo‘llanish darajasiga u yoki bu yozuvchining ma‘lum bir asardagi qo‘llanish darajasi bilan doimo mos kelavermaydi. Frazemalarning asosiy qismi ularni muayyan asardagi qo‘llanishi nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo‘lsa, kam chastotali iboralar qatoriga kirishi kerak, chunki bunday ekspressiv vositalar, yuqorida ta’kidlanganidek, u yoki bu asarda asosan bir marta qo‘llanishi bilan qimmatlidir.

Xulosa qilib biz aytganda, G.G‘ulom ijodi serqirra va sermazmun. Agar biz yozuvchi ijodini bir jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, ikkinchi bir jihatini e’tiborga olmasdan qolish mumkin emas, agar har bir qirrasini ochib bermoqchi bo‘lsak, unda biz yozuvchining butun bir ijodiy hayotiga qaytishimiz va uzoq muddat mobaynida izlanish va tahlillar yuritishimizga to‘g‘ri keladi. Mazkur maqolada biz yozuvchi ijodidagi ayrim individual iboralarni tahlilga tortdik. Keyingi ishlarimizda mavzuni yoritishda mazkur tahlillarni kengaytiramiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Karimov N. G‘afur G‘ulom. – T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2003.
2. Matyoqubova T. G‘afur G‘ulom badiiyati. – T: Fan va texnologiya, 2006.
3. O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari. – Andijon, 2003.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. -Toshkent, «O‘qituvchi», 1969, 116-bet.
5. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. -Toshkent, «O‘qituvchi», 1992.
6. G‘. G‘ulom “Shum bola” Toshkent-2018
7. G‘. G‘ulom “Yodgor” Toshkent-1983
- 8.Эргашева З. А. КАУЗАЛЛИК ВА СУБЪЕКТИВЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ВОҚЕЛАНИШИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2023. – Т. 6. – №. 1.